

ABDULLA QODIRIYNING “MEHROBDAN CHAYON” ROMANIDA KELTIRILGAN ARABIZMLAR

Arabisms mentioned in the novel "Mehrobdan Chayan" by Abdulla Qadiri

Ochilova Feruza

QarshiDU 2-bosqich magistranti feruzaochilova036@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanidagi arab tilidan o`zbek tiliga o`zlashgan so`zlar xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** so`z o`zlashtirish, arabizmlardagi semantik va fonetik o`zgarishlar.

Zamonaviy o`zbek tilining so`z boyligi bir necha ming yilllar davomida taraqqiy etib shakllanib kelgan. Undagi lug`at tarkibiy tuzilishi va kelib chiqish manbasi turlichadir. Biz buni bir necha turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va diniy jihatdan farqlanuvchi davlatlar bilan aloqalar natijasi sifatida izohlaymiz. Til rivoji uchun chetdan so`z o`zlashtirish katta ahamiyat kasb etuvchi lingvistik hodisa sanaladi. O`zbek tili o`zining uzoq taraqqiyoti davomida arab tilidan bir qancha so`z o`zlashtirganligi ma`lum. Bu so`zlar, dastlab, og`zaki nutqda so`ngra yozma nutq va adabiyotda qo`llanila boshlaydi. Yozuvchi, ijodkorlar bu so`zlardan unumli va o`rnida foydalanadilar. Mazkur maqolada, Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romanida qo`llanilgan arabizmlar va ular anglatgan ma`nolar xususida to`xtalib o`tilgan. Biror tildan so`z o`zlashtirilganda, o`zlashma ma`lum semantik, fonetik o`zgarishlarga uchrab o`zlashtirilishi kuzatiladi. Bu hodisa “Mehrobdan chayon” romani asosida ko`rib o`tilgan. Romanning boshida qayd etib o`tilgan *tasarruf* so`zi “O`zbek tilining izohli lug`ati”da - [a. – o`z ixtiyoriga olish, egalik qilish; mustaqil harakat qilish; o`zboshimchalik] kabi ma`nolarni ifodalashi aytilgan. Romanda esa bu so`z *egalik qilish, mustaqil harakat qilish* ma`nosini ifodalaydi.

Istinodgoh so`zining asosi ya`ni istinod so`zi arab tilidan o`zlashgan bo`lib, “O`zbek tilining izohli lug`ati”da [suyanish, tayanch; dalillash, asoslash] tayanish, orqa qilish, suyanish; tayanch, suyanchiq singari ma`nolarni ifodalashi qayd etilgan. Davlatning istinodi [davlat suyanchig`i, tayanchi] ma`nosida izohlab o`tilgan va asarda ham ayni shu ma`noni izohlashga xizmat qilgan. –goh esa fors-tojik tilidan o`zlashgan qo`shimcha bo`lib o`rin ma`nosini istinod so`ziga yuklash ma`nosida qo`llanilgan.

Romanda *xabosat* shaklida keltirilgan so`z xabis so`zining ko`plik shakli bo`lib, O`TIL da [a. yomon, yaramas, razil; nopok, iflos] tarzida izohlangan va o`sha davrdagi vaziyatni ta`kidlash va bo`rttirib ifodalash vazifasini o`tagan.

Romanda keltirilgan *hayf* soʻzi OʻTILda [a. – adolatsizlik, nohaqlik va shundan yetgan ozor, alam] tarzida izohlangan. Romanda esa Solih maxdum tomonidan Raʼnoga qarata aytilgan bu soʻz *arzimaslik*, *achinish* va *afsus* maʼnosida qoʻllanilgan.

Alhol- [hozir, shu paytda] kabi maʼnolarni ifodalaydi va romanda ham xuddi maʼnoni ifodalagan.

Mankuha soʻzi OʻTILda [a. – nikohlangan, nikohdagi (xotin)]. *Nikohdagi xotin*, *sharʼiy xotin*, *jufti halol* maʼnosini izohlashi aytilgan, romanda ham ayni maʼnoda qoʻllanilgan.

Mardud - [a. – qaytariluvchi, rad etiluvchi; foyda; mahsul] sifatida izohlangan bu soʻz, romanda *eʼtiborsiz qoldirish*, *parvo qilmaslik*, *masofa saqlash*, *uzoq tutish/boʻlish* kabi maʼnolarni ifodalashga xizmat qilgan.

Mudarris –[a. madrasada dars beruvchi shaxs]. Romanda ham shu maʼnoni ifodalab kelgan.

Mukarrir- [a. – takrorlovchi, qaytaruvchi] maʼnosini ifodalagan bu soʻz Qodiriy zamonasida [madrasada amaliy mashgʻulot olib boruvchi muallim] maʼnosida qoʻllanilgan.

Qabz -[a. – olish; tutish; siqimlash, tutamlash; toʻxtatib qolish] singari maʼnolarni ifodalaydi. Asarda [oʻz qabzigʻa olgʻan] tarzida berilgan jumlada pleonazm, yaʼni bir soʻzni ikki tilda arabiy va turkiy tilda ortiqcha qoʻllash koʻzga tashlanadi.

Tavajjuh - [a. – biror kishiga murojaat qilish, yuzlanish; biror tomonga yurish, joʻnab ketish] kabi maʼnolarni ifodalovchi bu soʻz asarda oʻz maʼnosidan biroz uzoqlashgan va umumiy maʼnoda *xayrixohlik qilish* maʼnosini ifodalab kelgan.

Indal uqalo bu soʻz hozir ham tilimizda ham faol qoʻllaniluvchi *gapning indalloosi*, *boʻlgani ochigʻi* degan maʼnoni ifodalashga xizmat qilgan bu soʻz OʻTILda [indallo-Alloh yonida, Allohga yaqin] tarzida izohlangan. Asar matnida esa gapning boʻladigani, ochigʻi maʼnolarini ifodalab kelgan.

Faroiz - faroyiz - [a. – hisob, oʻlchov] - yerning hajmini oʻlchash bilan shugʻullanuvchi, hisob-kitoblarga oid soha (fan). Romanda ham ayni shu maʼnoda qoʻllanilgan.

Mohazar – arab tilida [barcha bor narsa; tayyor taom] maʼnolarini ifodalovchi bu soʻz Solih maxdum tilidan ham xuddi shu maʼno va maqsadni ifodalashda foydalanilgan.

Hamoqat - [a. – ahmoqlik, tentaklik; jahl, gʻazab] asarda *ahmoqlik*, *tentaklik*, *aqlsizlik* kabi maʼnolarda qoʻllangan.

Azmoyish –soʻzi OʻTILda [a. sinov, tekshirish; tajriba] maʼnolarida izohlangan. Romanda esa asosiy maʼnosidan uzilmagan holda kasb nomiga ishora qilgan. Tekshiruvchi, taftishchi.

Istifor [a. soʻrov, soʻrab bilish, xabar olish] maʼnolarini izohlaydi va asarda ham shu maʼnoda keltirilgan.

Hadaf bu soʻz [nishon, moʻljil, soʻnggi nuqta] kabi maʼnolari izohlashi OʻTILda qayd etilgan. Romanda oʻzining bosh maʼnosida, yaʼni *nishon* maʼnosida qoʻllanilgan.

Bilfeʼl [a. haqiqatan, aslida] *oʻzicha*, *oʻzboshimcha*, *mustaqil*, *ravishda*, *bevosita* tarzida izohlangan bu soʻz roman matnida oʻzining asosiy maʼnosidan uzoqlashgan holda qoʻllanilgan oʻrin mavjud. ...Yana men mirzoboshi boʻlib qolsam, bu oh-u zorlarning, toʻkilgan maʼsum

qonlarning ichida bilfe'l suzarman...¹ Bu o'rinda *ixtiyorsiz tarzda, beixtiyor* ma'nolarini ifodalab kelgan.

Abas [a.- behuda, foydasiz]. Bu so'z romanda ham xuddi shu mazmunda qo'llanilgan. Ibtadaan aslida bu so'z *ibtido* so'zining Abdulla Qodiriy zamonasidagi buzilgan, dialect shakli bo'lib, [dastlab, boshlanish nuqtasi, ilk] kabi ma'nolarni ifodalaydi va Abdulla Qodiriy ham o'z asarida xuddi ma'noda qo'llagan.

Shuru' [a. kirishish, boshlash]. Biror ishni bajarishga kirish ma'nosini ifodalovchi mazkur so'z asarda ham ayni ma'noni ifodalashga xizmat qilgan.

Musallam [a. yo'l qo'yiladigan, ma'qullangan, tan olingan, sog'-salomat] kabi bir qancha ma'nolarni ifodalovchi bu so'z romanda Mirzo Anvarni lavozimga tayinlash maqsadida muallif tomonidan *ma'qullangan, tan olingan* ma'nolarini ifodalashda qo'llanilgan.

Muvoso tarzida qo'llanilgan bu so'z asliyatda *murosa* shaklida bo'lib, O'TILda bir-biridan rozilik, o'zaro kelishish ma'nolarini ifodalashi berib o'tilgan va romanda ham shu ma'noda, faqat fonetik jihatdan biroz o'zgarishga uchragan holda qo'llanilgan. Demak, o'zga tillardan o'zlashtirilgan so'zlar taraqqiyotida ham semantik, ham fonetik jihatdan o'zgarish bo'lishi ham mumkin ekanligini ayta olamiz. Bunda o'zlashmalar o'z qatlam so'zlari singari bir necha yuz yillardan so'ng dialektlar kabi bir-biridan fonetik jihatdan farq qiladi. Romanda qo'llanilgan bir qancha arabizmlar O'TILda qayd etilmagan bo'lsa-da, o'sha davrda tushunarli va asar matniga ko'ra izoh talab etmaganligi sababli ularni alohida qayd etib o'tmadik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 1,2,3,4,5 jildlar "O'zbekiston" nashriyoti Toshkent-2020
2. Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati Toshkent-2013
3. uzsmart.ru electron darsliklari

¹ Abdulla Qodiriy "Mehrobdan chayon" "Sharq" matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Toshkent -2013